



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA
LOYIHAVIY TADQIQTOCHILIK KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

SFT instituti katta o‘qituvchisi **Ruzieva Zulayho Samatovna**.

Tel: 93-652-00-81.

Elektron pochta: zuliruziyeva1981@gmail.com

Pedagogika 2-kurs talabasi **Norboeva Sitora**

Elektron pochta: sitoranorboyeva62@gmail.com

Аннотация: Boshlang'ich maktabda o'quvchilarning samarali ta'lim olishi faqat boshlang'ich sinf o'qituvchisining etarlicha yuqori darajadagi loyiha malakasi bilan mumkin. Shunday ekan, oliy ta'lim pedagog kadrlar tayyorlashda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining loyiha kompetensiyasini shakllantirishdek muhim vazifani muvaffaqiyatli bajarishi kerak.

Abstract: Productive education of pupils in primary school is possible only with a sufficiently high level of project competence of the primary school teacher. Therefore, higher education should successfully fulfill such an important task of training teaching staff as the formation of project competence of future elementary school teachers.

Ключевые понятия: адаптирование, творчество, активность, мобильность, инициатива, результат, деятельность, проект.

Key concepts: adaptation, creativity, activity, mobility, initiative, result, activity, project.

Dunyoda muvaffaqiyat ko'p jihatdan insonning o'z hayotini loyiha sifatida tashkil etish qobiliyati bilan belgilanadi: uzoq va yaqin istiqbolni aniqlash, zarur resurslarni topish va jalb qilish, harakatlar rejasini belgilash va uni amalga oshirish orqali belgilangan maqsadlarga erishilganmi yoki yo'qligini baholash. Mamlakatimizda ham, xorijda ham olib borilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, siyosat, biznes, san'at, sportdagi zamonaviy yetakchilarning aksariyati loyihaviy fikrlash turiga ega odamlardir. Bugungi kunda maktabda o'quvchilarning alohida faoliyat turi - loyiha faoliyati yordamida loyiha tafakkurini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Loyihalash faoliyati umumta'lim maktablarida tobora ko'proq qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning qanday bo'lishi kerakligi to'grisida hozircha tasavvurlar shakllanmagan. Loyiha deb turli ko'rinishdagi ishlarni aytish mumkin: oddiy referat va standart topshiriqni nostandart bajarishdan tortib (o'rganilayotgan mamlakat yoki davrning qo'shiq va raqslarini ijro etish bilan bog'liq geografiya yoki tarix bo'yicha javob), keyinchalik kurs yoki diplom ishi tamoyili bo'yicha himoya qilinadigan jiddiy tadqiqotgacha.

Loyiha faoliyati - nisbatan yangi pedagogik texnologiya, ammo uning kelajagi katta.

Loyiha - bola tushungan, qabul qilgan, faoliyat jarayonida amalga oshirgan maqsad. «Loyiha» so'zi lotincha «oldinga tashlangan» so'zidan kelib chiqqan, ya'ni maqsad, maqsadga erishish uchun reja bo'lib, natijada muallif yangi narsaga ega bo'lishi kerak: mahsulot, munosabat, dastur, kitob, film, model, ssenariy va boshqalar.

«Loyiha» so'zi o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil etilgan va bolalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladigan, ijodiy ishlarni (ya'ni mahsulotni) yaratish bilan yakunlanadigan harakatlar majmui tushuniladi. Bunday ijodiy ishlar, masalan, rasm, hunarmandchilik, haykaltaryoshlik, hikoya, o'qish, jumboq, konsert bo'lishi mumkin. Zamonaviy jamiyat maktab oldiga nafaqat maktab dasturini biladigan, balki fikrlaydigan, mustaqil ravishda bilim topa oladigan bitiruvchini tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. O'qitishning ijodiy usullari yetakchi rol o'ynashi kerak. Innovatsion pedagogik vositalar va usullar arsenalida tadqiqot ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrofda sodir bo'layotgan voqealarni qiziqish bilan tomosha qilishadi, ba'zida xayoliy gipotezalar keltirib, savollariga javob topishadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning qiziqishlari xilma-xil: ular fizika-kimyoviy jarayonlar, hayvonot va o'simlik dunyosi, narsalarning kelib chiqishi, daqiqaning narxi, san'at, psixologiya bilan qiziqishadi. Ularning qiziqishini saqlab qolish va ta'lim oluvchilarni ushbu ijodiy faoliyat turiga to'g'ri yondashishga o'rgatish muhimdir. Lekin, avvalo, meta-fan natijalariga erishish uchun loyiha-tadqiqot ishlarining muhimligi va zarurligini o'qituvchining o'zi tushunishi kerak.

“Loyihalashtirish faoliyati” tushunchasi “loyihalashtirish” va “loyihalar metodi” tushunchalari bilan bog'liq.

Loyihalashtirish, konstruksiyalashtirish jarayoni muhandislik psixologiyasi bo'yicha ishlarda batafsil tasvirlangan. Ushbu muammoning nazariy tahlilini A.G. Goroxov va V.S. Stepni kabi olimlarning asarlarida topish mumkin [35].

Loyihani yaratish jarayoni, ya'ni, nazarda tutilayotgan obyektning timsoli/obrazini yaratish jarayoni loyihalashtirish deb ataladi. Loyihalashtirmoq – atrof-muhitni o'zgartirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirmoq demakdir. Mashhur ingliz olimi J.K. Jons loyihalashtirish jarayonini “sun'iy muhitda o'zgarishga ibtido beruvchi faoliyat turi” deb atagan va loyihalashtirishning quyidagi sxemasini bergan: tahlil (divergensiya), sintez (transformatsiya) va baho(lash) (konvergensiya) [50]. YE.V. Panomaryova va M.V. Siganova kabi olimalar ushbu tushunchalarning zamonaviy talqinini berishgan [136]:

1. Tahlil – loyihalashtirishni boshlashdan oldin amalga oshiriladigan faoliyatni taqozo etadi va uning davomida: ma'lumotlar to'plash va bular orasida tasodifiylari ham bo'ladi; ma'lumotlarni tasniflash; axborot vositalari ro'yxatini tuzish; ma'lumotlarni tahlil qilish va ular orasida o'zaro bog'liqliklar/tobeliklarni topish; amal qilish mezonlari ro'yxatini tuzish; belgilovchi mezonlarni moslashtirish/kelishib olish amalga oshiriladi.

2. Sintez – ijodiy fikrlab tushunishni; yaxlitni alohida qismlarga bo'lish va ishlab chiqishni; ushbu qismlarning (elementlarning) turli birga kelish holatlari/variantlarini (kombinatsiyalarini) tuzib ko'rishni; ishlanma natijasiga qiyinchiliklarsiz tushunish imkonini beruvchi olingan yechimlarni muayyan tartibga solishni nazarda tutadi.

3. Baholash – baholash metodlarini tanlash; baholashni amal qilish, ishlab chiqarish/tayyorlash va sotish nuqtai nazaridan baholashni o'tkazish [136, 164 b.].

Biz tadqiq qilayotgan “loyihalashtirish” tushunchasini olim S.A. Maliy “ba'zi obyektlarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha har tomonlama kelishilgan murakkab yechimlarni izlash jarayoni” deb qaraydi [98, 21 b.]. V.S. Bezrukova, YE.I. Isayev, V.I. Slobodchikov, N.F. Talizina, I.S. Yakimanskaya kabi Rossiya olimlarining asarlarida “loyihalashtirish” tushunchasi pedagogik loyihalashtirish bilan “tahsil oluvchilar va pedagoglar amalga oshirmoqchi bo'lgan faoliyatning asosiy qismlari/detallarini oldindan ishlab chiqish” sifatida bog'liq deb ko'rsatiladi [12, 155, 166].

Loyihalashtirishning bizning tadqiqotimizda yuqorida ko'rib chiqilgan tushunchalarni tavsiflab va bir-biri bilan taqqoslab, biz ular bir-biriga o'xshashligini, biroq mehat faoliyatining tur xossalari bilan emas, balki o'quv faoliyatining tur xossalari bilan belgilanadigan o'z xususiyatlariga egaligini aytib o'tishimiz mumkin. Talabalarning o'quv loyihalashtirish faoliyati talaba shaxsining rivojlanishiga yo'naltirilgan. V.Y. av L.K Istorik kabi mualliflar [36, 65 b.] loyihalashtirish faoliyatida sub'ktning ta'limning yangi mazmunini saralab

tanlashda ishtirok etish bilan, yangi bilimlarni hayotiy-amaliy va bilish vaziyatlarida yo‘llarini topishi, tayanch bo‘lishi uchun tayyor bilimlarni qo‘llash, inson faoliyatining turli xillarini bajarishning avval o‘zlashtirilgan usullarini qo‘llash tajribasini, ijodiy faoliyat tajribasini, olamga hissiy/emotsional-qadriyat munosabati tajribasini qo‘llash bilan shaxsan o‘zi yaratgan “ta’lim mahsulotini” kuzatishadi [36, 65 b.].

N.V. Gorbunova, V.V. Guzeyev va A.V. Xutorskoy hamda I.D. Chechel va boshqa tadqiqotchilarning tasvirida [34, 47, 181], loyihalashtirish faoliyatining mazmunida faoliyat usullarini egallashga asosiy urg‘u beriladi, va faktik bilimlarni to‘plash esa ikkilamchi vazifa hisoblanadi. Olimlar o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning o‘zgargan munosabatlarini loyihalashtirish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ko‘rsatishadi. Pedagog va tahsil oluvchi orasidagi subyet-obyekt munosabatlari subyekt-subyekt o‘quv o‘zaro faoliyati, hamkorlik bilan almashadi. Loyihalashtirish faoliyatini tashkil qilish jarayonida o‘qituvchi tahsil oluvchining loyihalashtirish algoritmi, uning mohiyati, faoliyatni bo‘lish bosqichlari bilan tanishtiradi. Bunda o‘qituvchi butun jarayonni nazorat qiladi va yo‘naltiradi, tahsil oluvchilarga maslahat beradi (konsultatsiya), loyiha ustida muvaffaqiyatli ishlash uchun tinimsiz ikki tomonlama aloqani o‘rnatadi va bunda loyihani bajarish jarayonida – g‘oyadan boshlab uni mehnat mahsulida mujassam etishgacha bosqichlarda talabaning imkoni boricha ko‘proq mustaqilligiga erishib boradi. Demak, loyihalashtirish faoliyatini shaxsga qaratilgan yondashuv asosida tashkil qilish tahsil oluvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirishga yordam beradi. [34, 47, 181].

O‘z fikrini asoslashda, olim A.E. Prichinin [138] muhandislik ta’limiga maqsadli, mazmunan yo‘naltirilganlikka ega bo‘lgan real voqelik asosida loyihalashtirishdan oldin bajariladigan tadqiqotlar yotadigan o‘quv loyihalashtirish faoliyati bilan, loyihadan oldin bajariladigan tadqiqot ishlari bilan, o‘qitish jarayoni bilan, o‘qitish predmeti bilan uni o‘lchash vositalari kompleksi bilan [138].

Loyihalashtirish faoliyatining texnologiklik effekti (shakl, ma’no-mazmunni) o‘zgartiruvchi xarakterdagi amallarning tartib-taomilini birlashtirishga asoslangan. Bunday o‘zgartiruvchi effekt birgalikda erishiladigan natijaga ham, loyihalashtirish bevosita ishtirokchilariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarning o‘quv loyihalashtirish ishlarining bosqichlari ko‘plab tadqiqot ishlarida ochib berilgan.



Olim V.P. Bikov [24] loyihalashtirishning asosida amalga oshirish kechiktirilgan mehnat faoliyatiga xos bosqichma-bosqich tabiat yotadigan modelini keltiradi [24]. Loyihalashtirishning ushbu bosqichlarini ko‘rib chiqamiz:

1 bosqich – ehtiyojni aniqlash. Ushbu bosqichda ko‘p hollarda ehtiyoj ijtimoiy ishlab chiqarishning holatidan kelib chiqadi, bu esa keyinroq istiqbolli rejalarda aks etadi.

2 bosqich. Ushbu bosqichda loyihalashtirish maqsadlari aniqlanadi.

3 bosqich – loyihalashtirish obyektining asosiy belgilarini aniqlash. Ushbu bosqichda loyihalashtirishning tavsiflari/xarakteristikalarini va xossalari aniqlanadi (miqdoriy – parametrlari va sifat – sifat ko‘rsatkichlari).

4 bosqich – turli adabiyolarni tahlil qilish va evristik priyomlardan foydalanib texnik yechimlar variantlarini izlash.

5 bosqich – qaror qabul qilish – noaniqlik sharoitlarida amalga oshadi [24].

Quyida loyihalashtirish faoliyatining olim P.A. Petryakov taklif qilgan bosqichlari keltirilgan [128]:

- izlanish bosqichi: unda muammoni qo‘yish; mavzuni tanlash; harakat/ishlar rejasini tuzish; axborotni to‘plash va tahlil qilish amalga oshiriladi;

- konstruktorlik ishi bosqichi: unda optimal yechimni izlash; konstruksiya variantlarini tadqiq qilish; ishlab chiqarish/tayyorlash texnologiyasini tanlash amalga oshadi; iqtisodiy baho berish amalga oshiriladi; ekologik ekspertiza o‘tkaziladi; zarur hujjatlar tuziladi;

- texnologik bosqich: unda loyihaning amalga oshirilish rejasi tuziladi; zarur asboblarni va materiallarni saralab/tanlab olish amalga oshiriladi; zarur operatsiyalar bajariladi; sifat nazorat amalga oshiriladi; zarur o‘zgartirishlar kiritiladi;

- yakuniy bosqich: sifatga baho beriladi; loyihani bajarish natijalari tahlil qilinadi; loyihalashtirish natijalaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi [128].

Olimlar G.B. Golub va O.V. Churakovalarning fikricha, talabalarning loyihalashtirish faoliyati jarayonini besh bosqichga bo‘lish mumkin [33]:

1 jadval

Loyihalashtirish faoliyati bosqichlari

№	Bosqich nomi	Amallar
----------	---------------------	----------------



1	Izlanish	1.Obyektning mavjud o‘xshashlari/analoglarini tahlil qilish. 2.Obyektning tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish. 3.Obyektning axborot nuqtai nazaridan tahlil qilish.
2	Loyihalashtirish	G‘oyalar variantlarini ishlab chiqish, eng yaxshi g‘oyani tanlash. Mezonlar ro‘yxati. Loyihalashtirish/konstruksiyalash.
3	Texnologiya	1. Asboblarni, uskunalarni tanlash. 2. Operatsiyalarni bajarishni rejalashtirish 3. Texnologik operatsiyalarni bajarish.
4	Loyihani asoslash	1. Ishlab chiqilgan loyiha uchun ehtiyojlar, xarajatlarni tuzish 2. Loyihani hujjat shaklida tayyorlash/rasmiylashtirish
5	Tahlil bosqichi	Loyihani himoya va muhokama qilish. Loyihalashtirish natijalarini mustaqil tahlil qilish va mustaqil baholash.

Ko‘rib turganimizdek, loyiha ustida ishlash 5 bosqichga bo‘lingan. Bunda tahsil oluvchilar yaratgan loyihalar “yoshi kattalar” qurganday quriladi (yaratiladi). Loyiha ustida bosqichma-bosqich ishlash mahsuldor bilish faoliyatining bosqichlariga mos keladi: mummoli vaziyat – muammoni aniqlash, insonning muammoni anglashi/tushunishi – muammoni yechish usullarini izlash [33].

Loyihalashtirish tabiatidan kelib chiqib, olim A.P. Suxodumseva [164] pedagogik loyihalarda bir ma’noli yechimlar yo‘qligi haqidagi voqelikni/faktni, ya’ni loyihalashtirish faoliyatining mazmun va texnologik varitivligini anglash lozim deb o‘ylaydi. Predmetli faoliyat uch blokdan tashkil topgan: predmetli, faoliyatga asoslangan va kommunikativ [164].

Vazifani qo‘ya olish qobiliyati – san’at, loyihalashtirish faoliyatini eng yuqori darajasi bo‘lib, u barcha narsalarni o‘z ichiga olmaydi.

Loyihalashtirish faoliyatini tashkil etishda talaba oldiga asosiy vazifalar qo‘yiladi: bilimlarni olish va OTMdagi tahsilni tagatgach mustaqil kasbiy

faoliyatiga tayyorlanish. Faoliyatning ushbu turini amalga oshirishda talaba bilimlar to'playdi, loyihalashtirish faoliyatini amalga oshirish va uni bo'lajak kasbiy faoliyatda qo'llash malakalarini oladi.

Shu tariqa. Talabalarning o'quv loyihalashtirish faoliyati deganda loyiha g'oyasidan boshlab loyihani amalga oshirishgacha bo'lgan mustaqil bajarilgan loyihalashtirish ishlari nazarda tutiladi, va bunda talaba ushbu faoliyatning avval o'zlashtirilgan, yangi o'zlashtiriladigan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar va ularni takrorlash/qayta ishlab chiqarishga bo'lgan tayyorlikni integratsiya qilishga yo'naltirilgan kechish sharoitlaridan bevosita (to'g'ridan to'g'ri) bog'liqlikda/tobelikda bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan qarashlarga tayangan holda, biz loyihalashtirish faoliyatiga quyidagicha qaraymiz:

- zamonaviy o'qitish vositasi sifatida;
- inovatsion, ijodiy, mustaqil faoliyat sifatida;
- mustaqil rivojlanish vositasi sifatida;
- shaxsni ta'lim sifatiga erishishga yo'naltirib loyiha (loyihalashtirish) kompetensiyalari va kasbiy jihatdan ahamiyatli xislatlarining rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoit sifatida.

Tadqiqotchi olimlar YE.V. Ponomareva va M.V. Siganova [136] loyihalashtirish faoliyatini mustaqil tadqiqotchilik malakalarini ishlab chiqish/mashq qildirish/ rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlardan biri deb hisoblaydilar, va ushbu metod tahsil oluvchilarning o'quv jarayonidan olingan ijodiy qobiliyatlarini va fikrlash mantig'ini rivojlantiradi va muayyan hayotiy muhim muammolarga qo'shadi [136].

Endi "loyihalar metodiga" murojaat qilamiz. Uning paydo bo'lish tarixi amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui va uning shogirdi V.X. Kilpatrik nomlari bilan bog'liq. Uzbekiston ta'lim tizimida bugungi kunda ushbu metod faol joriy va amal qilish jarayonini boshdan kechirmoqda.

Ma'lumki, bilish jarayonini tashkil qilish usuli sifatida loyihalar metodining o'zi spetsifik tomonlariga ega. Metodning asosiy g'oyasi uning pragmatik tarkibiy qismi u yoki boshqa amaliy yoki nazariy jihatdan ahamiyatli o'quv muammosini yechishda erishiladigan natijaga yo'naltirilganlikdan iborat.

Loyihalar usulini qo'llash bilan ishlash tajribasi shuni ta'kidlash mumkinki, loyihalar usuli nafaqat boshlang'ich maktabda, balki har qanday ta'lim modelida ham har qanday fanni o'qitish amaliyotida keng qo'llanilishi mumkin, chunki u bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.



Loyiha faoliyatini tashkil etish muammosiga murojaat qilish hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini yangilash sharoitida dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabitlar ro'yxati:

1. Ivashedkina O.A., Poletayeva YE.K. Uchebnaya issledovatelskaya deyatel- nost kak sredstvo dostijeniya planiruemix obrazovatelnix rezultatov. O.A. Ivashedkina, YE.K. Poletayeva. – SPb. :APPO, – 2012.
2. Malaya Konferensiya projektnix i issledovatel'skix rabot uchashixsya naxalnoy shkoli Primorskogo rayona «Yuniy issledovatel»: [<https://nsportal.ru/node/2913683>]
3. Ruziyeva Z S.* PROJECT ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL * ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 03, March 2022
4. Ruzieva Z S FORMATION OF PROJECT COMPETENCE OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS International journal for innovative engeneering and management research 04april 2022 issn 2456-5083
5. Ro'ziyeva Z. S. ТРЕБОВАНИЯ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ МЕТОДА ПРОЕКТОВ с99-102 . RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI 2022-yil, 13-14 may